

Kat qal'ada antik davrga oid buyumlar topildi

Xorazm Ma'mun akademiyasining Ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'limi arxeologlari Shovot tumanida joylashgan Kat qal'a arxeologik yodgorligida qazuv ishlarini olib bormoqdalar. Ayni paytda yodgorlikning g'arbiy qismida amalga oshirilayotgan izlanishlar natijasida ilk antik (mil.av. IV-III asrlar) va so'nggi antik davrga oid (mil. II-IV asrlar) me'moriy inshootlar qoldiqlari aniqlanib o'rganilmoqda.





O'z navbatida tadqiqotlar davomida juda ko'plab ilk va so'nggi antik davrga oid sopol buyumlar, marmardan ishlangan idishchalar qoldiqlari va shahar hayotining keyingi bosqichlariga doir sopollar bo'laklari hamda mis uzuk ham aniqlandi, shu jumladan, quyi qatlamlardan arxaik davrga xos idishlar bo'laklari ham topilgan bo'lib, shaharning barpo etilishi bilan bog'liq yangi ma'lumotlarni taqdim etadi. IZlanishlar hali davom etmoqda!



Ma'lumot uchun: Kat qal'a (Shovot) – Shovot tumanidagi Beruniy nomli shirkat xo'jaligi Kat qishlog'i hududida joylashgan, rejalashtirilishi noto'g'ri to'g'ri burchak, umumiy hajmi 10,8 ga, qadimda ikki qatorli devor o'rab olgan bo'lib, ular o'z navbatida yarim aylanali kungurlar bilan kuchaytirilgan, ular o'rtasidagi oraliq -27 m. Yodgorlik miloddan avvalgi IV asrda qurilgan.